

MILLIY CHOLG'U VA SIMFONIK TAFAKKUR SINTEZI: RUSTAM ABDULLAYEVNING QASHQAR RUBOB UCHUN KONSERTI

To'rayeva Gulnoza

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati inistituti
2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek kompozitori Rustam Abdullayev ijodida yaratilgan "Qashqqar rubob va simfonik orkestr uchun konsert" asarining shakl, garmoniya, ritm va tembr jihatlaridan tahlil etiladi. Asarning kompozitsion tuzilishi, milliy cholg'ular orkestri uchun yaratilganligi, o'zbek musiqasi intonatsiyasi va modal tizimlarining uyg'unlashuvi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda "konsert" janrining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, Abdullayevning bu janrdagi innovatsion yondashuvi yoritilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется концерт «Для кашгарского рубаб и симфонического оркестра» узбекского композитора Рустама Абдуллаева с точки зрения формы, гармонии, ритма и тембра. Рассматривается композиционная структура произведения, его предназначенность для национального инструмента в сопровождении симфонического оркестра, а также показано взаимодействие интонационных и модальных систем узбекской музыкальной традиции. В исследовании раскрываются характерные особенности жанра концерта, а также освещается инновационный подход Р. Абдуллаева в рамках данного жанра.

Abstract: This article analyzes the concerto for Kashgar rubab and symphonic orchestra by the Uzbek composer Rustam Abdullayev from the perspectives of form, harmony, rhythm, and timbre. The study examines the compositional structure of the work, its focus on a national instrument within a symphonic orchestral context, and highlights the integration of intonational and modal systems of Uzbek musical tradition. The research also identifies the distinctive features of the concerto genre and emphasizes Rustam Abdullayev's innovative approach within this genre.

Kalit so'zlar: Qashqqar rubob, simfonik orkestr, konsert janri, kompozitsion tuzilish, garmoniya, ritm, tembr, modal tizim, o'zbek musiqa intonatsiyasi, Rustam Abdullayev.

Ключевые слова: Кашгарский рубаб, симфонический оркестр, жанр концерта, композиционная структура, гармония, ритм, тембр, модальная система, узбекская музыкальная интонация, Рустам Абдуллаев.

Keywords: Kashgar rubab, symphonic orchestra, concerto genre, compositional structure, harmony, rhythm, timbre, modal system, Uzbek musical intonation, Rustam Abdullayev.

Zamonaviy o'zbek kompozitorlik ijodida milliy cholg'ularning simfonik orkestr bilan uyg'unlashuvi muhim badiiy-estetik jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon milliy musiqa an'analari va Yevropa akademik musiqa tafakkurining o'zaro sintezi asosida yangi janr va uslubiy yo'nalishlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, an'anaviy cholg'ular uchun yaratilgan kontsert janridagi asarlar milliy tembr tafakkurining simfonik kontekstda talqin etilishiga keng imkoniyat yaratadi.

Mazkur maqolada o'zbek kompozitori Rustam Abdullayev ijodida muhim o'rin tutuvchi "Qashqar rubob va simfonik orkestr uchun kontsert" asari tahlil obyekti sifatida tanlangan. Asarda qashqar rubobning tembr imkoniyatlari simfonik orkestr fakturasi bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lib, o'zbek musiqa intonatsiyasi hamda modal tizimlarining zamonaviy kompozitsion yechimlar bilan sintezi kuzatiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mazkur asarning shakl, garmoniya, ritm va tembr jihatlaridagi badiiy xususiyatlarini aniqlash hamda kompozitorning kontsert janriga bo'lgan innovatsion yondashuvini yoritishdan iborat.

Mazkur konsert klassik uch qismli siklik shaklda yozilgan bo'lib, bu holat janrning tarixiy an'analarga sodiqlikni ko'rsatadi. Biroq har bir qismning ichki tuzilishi, fakturaviy yechimlari va metroritmik tashkiloti kompozitorning individual uslubini yaqqol namoyon etadi.

Qismlar quyidagi temp va xarakterda joylashtirilgan:

I qism – Rubato (erkin, improvizatsion xarakter)

II qism – Moderato (lirik, kuychang)

III qism – Allegro (jadal, raqssimon, virtuozi)

I qism: Rubato — erkin fantaziya va improvizatsion kompozitsiya.

Asar Rubato tempi, A- dur ning 7- pog'onasi pasaytirilganda yozilgan bo'lib, 5 ta siftni tashkil etadi. Birinchi qism erkin fantaziya xarakteriga ega va improvizatsiyaga yaqin musiqiy fikrlash uslubi bilan ajralib turadi. 6 taktdan iborat muqaddima Qashqar rubobining o'zbek milliy musiqasiga xos intonatsion xususiyatlarini ifodalovchi kvartali yurishlar bilan boshlanadi. Muqaddima davomida o'ychang va mungli ohanglar rubob cholg'usining rez (yuqori registrdagi) tovushlarida ifodalanib, musiqiy obrazning liriko-dramatik kayfiyatini yuzaga chiqaradi. Melodik rivojlanish jarayonida intonatsion harakat sekin sur'atda kvartadan septima oralig'igacha bosqichma-bosqich ko'tarilib, so'ng xuddi shu tartibda pasayib, yana kvarta intervaliga qaytadi. Ritmika jihatidan muqaddimada murakkab bo'lmagan usul va o'lchovdan foydalanilgan bo'lib, bu ohangning ravonligi va tabiiy rivojlanishini ta'minlaydi. Musiqiy fikr 6 takt doirasida amalga oshiriladi va bunda cho'zimlarga boy notalardan keng foydalanilishi natijasida bosiqlik hamda ichki musiqiy taranglik uyg'unlashadi. Muqaddimaning yakuniy qismida arfa cholg'usining jozibador glissando uslubidagi sadolari orqali musiqiy oqim tabiiy ravishda 1-sifrga o'tib, muqaddima bilan asosiy bo'lim o'rtasida mantiqiy va dramaturgik bog'lanish vujudga keladi.



Tonikaga asoslangan uch tovushlikdan boshlangan mazkur sifrdan musiqiy faktura aniq funksional taqsimot asosida tashkil etilgan bo'lib, garmonik poydevor asosan orkestrning torli cholg'ular guruhi tomonidan ta'minlanadi, melodik chiziq esa yakkaxon (solo) ijro orqali yetakchi o'rinni egallaydi. Bunday faktura yechimi melodiyaning ifodaviyligini kuchaytirish bilan birga, orkestr va yakkaxon cholg'u o'rtasidagi dialogik munosabatni yuzaga keltiradi. Skripka va alt cholg'ularida qo'llanilgan tremolo uslubi deyarli qismning yakuniga qadar uzluksiz davom etib, umumiy garmonik fonni barqaror saqlashga xizmat qiladi. Mazkur tremolo fakturasi dinamaning bosqichma-bosqich pasayishi — “diminuendo” orqali yumshatilib, natijada birinchi sifrdan kirish qismi tabiiy va mantiqan asoslangan tarzda shakllanadi. Mazkur bo'limda melodik rivojlanish trel usuli orqali sekunda intervali bo'ylab yuqoriga yo'naltirilgan harakat asosida boshlanadi. Ushbu jarayonda ritmik ifodani jonlantirish maqsadida triol figuratsiyalaridan ham o'rinni foydalanilgan. Shunga qaramay, faktura tuzilishi murakkablik kasb etmaydi, balki musiqiy fikrning ravshanligi va intonatsion aniqligini ta'minlashga turtki bo'ladi. Ikkinchi va uchinchi sifrlarda qashqar rubobining ijro imkoniyatlari yanada kengroq namoyon bo'lib, murakkab cho'zimlar, koloristik uslublarga boy bezaklar hamda tembrning keng qamrovli diapazoni orqali cholg'uning ifodaviy salohiyati ochib beriladi.



Ikkinchi raqamdan yakkaxon partiyada melodik rivojlanish 32 talik notalarga asoslangan cho'zimlar orqali kvarta va kvinta intervallari doirasida amalga oshiriladigan sakrama harakatlar bilan boshlanadi hamda “crescendo” va “forte” dinamik belgilarining faol qo'llanilishi bilan kuchaytiriladi. Intervalli sakrashlardan so'ng kuy harakati qisqa muddatga yengil pasayish xarakterini kasb etib, keyinchalik keskin ravishda yuqori registrga intiladi. Bundan tashqari, o'lchovlarning tez-tez almashib turishi yakkaxon ijrochidan yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik, ritmik barqarorlik va musiqiy tafakkurning aniqligini talab etadi. Orkestr partiyasida asosan organ-punkt usulidan foydalanilgan bo'lib, bu holat garmonik tayanchni barqaror saqlashga xizmat qiladi. Fleyta cholg'usining vaqti-vaqti bilan jo'r bo'lib kirishi esa umumiy fakturaga tembr rang-barangligi qo'shib, yakkaxon partiyaning ifodaviyligini yanada boyitadi. Uchinchi raqamdan boshlab qashqar rubobi partiyasida yuqori registrda ijro etiluvchi terma zarb usuli yetakchi o'rinni egallaydi. Bu raqamda butun qismning harakterini ochib berib uni cho'qqiga **ff** dinamik belgisi orqali olib chiqadi.

Ijro texnikasi esa cholg'uning tembr imkoniyatlarini yanada yorqin namoyon etib, musiqiy rivojlanishning dinamik va ifodaviy xarakterini kuchaytiradi hamda yakkaxon partiyaning virtuoslik darajasini yaqqol ko'rsatadi.



To'rtinchi raqamda rivojlanish biroz davom etib so'ng ritmik-faol harakat asta sekinlik bilan pasayib, triol figuratsiyalari bilan bir qatorda kvarta va kvinta asosidagi akkord tuzilmalari keng qo'llaniladi. Aynan shu jarayonda orkestr partiyasida sol va re tovushlari katta cho'zimlarda organ-punktda tremolada sifatida ushlab turilib, musiqiy rivojlanish uchun barqaror garmonik tayanch yaratiladi hamda yakkaxon partiyaning ritmik va intonatsion faolligi yanada ravshanlashadi.



Beshinchi raqamdan boshlab asarda polifonik faktura ustuvor ahamiyat kasb etadi. Polifonik unsurlar turli cholg'ular partiyalarida motivlarning bir-biri ustiga qatlamlanib kirishi orqali namoyon bo'lib, mustaqil melodik chiziqlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida murakkab va ko'p qatlamli musiqiy tuzilma vujudga keladi.

Umuman olganda, asarning birinchi qismi faktura tuzilishi jihatidan gomofon-garmonik xarakter kasb etib, unda orkestr, ayniqsa torli cholg'ular guruhi, butun qism davomida barqaror garmonik tayanch vazifasini bajaradi. Melodik harakatchanlikning asosiy yukini Qashqar rubobi hamda yog'och damli cholg'ular o'z zimmasiga olgani yakkaxon cholg'uning yetakchi ifodaviy rolini yaqqol ifodalaydi. Ritmik murakkablik, dinamik kontrastlar, keng registrli harakatlar va intervalli sakrashlar birinchi qismning ichki dramatik rivojini ta'minlab, kompozitorning yakkaxon cholg'u imkoniyatlarini chuqur ochib berishga bo'lgan intilishini ko'rsatadi. Natijada mazkur qism nafaqat musiqiy shakl jihatidan, balki ijrochilik va orkestrlashtirish nuqtayi nazaridan ham asarning eng murakkab va mazmunan muhim bo'limlaridan biri sifatida ifodalanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur qismda kompozitor an'anaviy konsert janriga xos bo'lgan yakkaxon cholg'u va orkestr o'rtasidagi "raqobat" yoki "musobaqa" tamoyillaridan ongli ravishda chekinadi. Buning o'rniga u yakkaxon cholg'u va orkestr partiyalarini nisbatan mustaqil, biroq mazmunan o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlantirib, erkin musiqiy fikr bayoniga asoslangan dramaturgik yechimni shakllantiradi. Natijada musiqiy rivojlanish tashqi dramatik qarama-qarshiliklar orqali emas, balki ichki intonatsion mantiq, tembriy ranglar almashinuvi hamda faktura qatlamlarining izchil rivoji orqali amalga oshiriladi. Bu holat asarning umumiy badiiy kontsepsiyasida musiqiy fikrning erkinligi va falsafiy mushohadaga yo'naltirilganligini yaqqol namoyon etadi.

Kompozitorning o'zi ta'kidlaganidek, asarning birinchi qismi Qashqar rubobining ijro imkoniyatlarini maksimal darajada ochib beruvchi murakkab texnik va ifodaviy unsurlar majmuasi bilan ajralib turadi. Turli xil ritmik bo'linishlar, registrning keng qamrovli diapazoni, oktavalararo intervalli sakrashlar hamda o'zgaruvchan dinamika boyligi yakkaxon ijrochidan yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik, aniq ritmik nazorat va musiqiy tafakkurning yetukligini talab etadi. Shu bois amaliy ijro tajribasida ko'plab sozandalar tomonidan asarning ikkinchi va uchinchi qismlariga ko'proq murojaat qilinishi holatlari kuzatiladi.

Mazkur qismning murakkabligi faqat yakkaxon partiya bilan cheklanmay, balki orkestr ijrochiligida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, komplementar (o'zaro to'ldiruvchi) ritmika va polimetriya unsurlarining faol qo'llanilishi orkestr a'zolaridan yuqori darajadagi ansambl uyg'unligi, ritmik aniqlik hamda faktura qatlamlari o'rtasida barqaror muvozanatni saqlashni talab etadi. Natijada birinchi qism nafaqat yakkaxon cholg'u ijrochiligi, balki orkestrlashtirish va ijro texnikasi nuqtayi nazaridan ham asarning eng murakkab va kontseptual jihatdan muhim bo'limlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

2- qism Moderato temp, 6/8 o'lchov, d moll tonalligida yozilgan. Bu qism yetti sifrdan iborat bo'lib, aniq shakl, barqaror o'lchov hamda muayyan tonallikka ega yaxlit musiqiy bo'lim sifatida namoyon bo'ladi. Asarning ikkinchi qismi oddiy uch qismli shakl — $A-A^1-A$ asosida yozilgan bo'lib, unda kvadratlilik xususiyati yaqqol seziladi. Ma'lumki, $A-A^1-A$ tuzilishi oddiy uch qismli shaklning rivojlanuvchi turi hisoblanadi va mazkur shakl tarang hamda uzluksiz mavzuviy rivoj (to'g'ridan-to'g'ri rivojlanish) ni ifodalash uchun keng imkoniyatlarga ega. $A A^1 A$ oddiy 3 qismli shaklining rivojlanuvchi turi bo'lib, bu shakl- tarang va muttasil mavzuviy rivoj (to'g'ridan-to'g'ri rivojlanish) ifodasi uchun bir muncha keng imkoniyatlarga ega. Uning barcha qismlari bitta musiqiy materialda quriladi va qismlarning har biri rivojlanishning muayyan bosqichi sanaladi: I qism— namoyish etadi, II qism – rivojlantiradi, III qism – rivojlanishni takrorlash orqali yakunlaydi. I qism funksiyasi jihatdan ekspozitsion bo'lib, musiqiy fikrni davriyashaklida bayon etadi. Uch qismli shaklning I qismlarida ikki qismli shakllardagiga nisbatan davriyalarning birmuncha rang-barang strukturalari qo'llaniladi. I qism davriyalari uchun D guruhi tonalliklariga modulyatsiya xos, biroq bir tonallik davriya ham bo'lishi mumkin. II qism funksiyasi jihatdan rivojlanuvchi bo'lib, u I qism musiqiy materialida quriladi. Eng oddiy hollarda o'rta qism birinchi qismning yondosh tonalligiga aniq yoki o'zgartirilgan transpozitsiyasi bo'lishi mumkin. U qisman yoki to'liq tarzda bo'lishi mumkin. III qism repriza bo'lib, unda asosiy tonallik tasdig'i yuz beradi. Rivojlanuvchi uch qismli shakl cholg'u miniatyuralari (etyudlar, prelyudiyalar) va kichik dasturli pyesalarning mustaqil shakli

sifatida qabul qilinadi, shuningdek, birmuncha murakkab shakllarning tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi¹.

Muqaddima davriya shaklida tashkil topgan 10 taktli mavzudan iborat bo'lib, u o'ziga xos ritmik usuli bilan ajralib turadi. Ritmik asos asosan arfa va violonchel partiyalarida namoyon bo'lib, musiqiy oqimga barqarorlik va ichki harakat bag'ishlaydi. Ushbu fon ustida lirik xarakterdagi mavzu fleyta, goboy va klarnet cholg'ularida bayon etilib, yumshoq tembrlar uyg'unligi orqali nafis va muloyim obrazni yuzaga keltiradi. Tembrlarning bunday taqsimoti muqaddimaning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirib, asarning keyingi rivoji uchun zarur bo'lgan emosional kayfiyatni shakllantiradi.

A (11-38 takt)

A1(39-56 takt)

A(57-68 takt)

A - kvinta intervali orqali boshlanib, tinglovchini darhol o'zbek milliy musiqasiga xos intonatsiyalar va ohanglar bilan jalb qiladi. Ushbu melodik harakat nafaqat milliy ohang rangini yaratadi, balki asarning dramaturgik rivojini ham belgilab beradi, tinglovchida darhol estetik e'tibor va emotsional qiziqish uyg'otadi.



Bunga sabab kompozitorning yoshligidan O'zbek xalq qo'shiqlarini tinglab ulg'agani va bir qancha milliy cholg'ularda chalish mahoratiga ega bo'lgani bilan bog'liq. Ayniqsa, Qashqar rubobiga bag'ishlab yaratgan konsertida bu tajriba va mahorat o'zining yaqqol ifodasini topadi. Ushbu holatlar uning milliy musiqaga bo'lgan chuqur mehrini va an'analarga sadoqatini namoyon etadi.



Yuqorida keltirilgan musiqiy bayonning na'munalaridan ko'rinib turibdiki, tanbur, nog'ora va violonchel tomonidan berilgan usullar, shuningdek 6/8 o'lchovi "ufar"ga xos ritmik xarakterni yaratadi, bu esa asarning milliy ifodaviyligini yanada boyitadi. 1-raqamdan boshlab kuy qashqar rubobda ifodalansa kompozitor yirik cho'zimlar orqali torli cholg'ular partiyasida usul (velionchel) va garmoniyani (skripka, alt, kontrabass) bayon qilishga muyassar bo'lgan. 2- raqam damli cholg'ularning xromatik oktavali pastlama yurishlari bilan boshlansa, keyinchalik mavzu fleytaga o'tib garmonik qatlamlashish orkestrga yoyilib ketadi. Bu kompozitorning

¹S. Matyakubova. Musiqa asarlar tahlili. Toshkent2023

A1 - asosiy mavzuning hosilasi bilan boshlanib, o'rtaliq faktura va dinamikaning kuchayib borishi orqali A bo'limiga nisbatan kengaytirilgan va rivojlantirilgan shaklni namoyon etadi. Yakkaxon partiyada ritmik harakat valtorna va skripka tomonidan bir xillikda bajarilib, melodik uzluksizlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, violonchel va kontrabas partiyalari subdominanta organ-punktida barqarorlikni saqlab turadi, qolgan cholg'ular esa deyarli pauza holatida qoladi. Natijada bu bo'lim A bo'limidagi mavzu rivojini chuqurroq ifodalash va polifonik faktura orqali dramatik kontrast yaratishga xizmat qiladi.



A – Repriza bo'limi dinamizatsiyalangan xarakterga ega bo'lib, boshlang'ich mavzuni davom ettiruvchi repriza sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu bo'lim davomida torli cholg'ularda subdominanta akkordlari organ-punkt shaklida yangraydi, bu esa polifonik barqarorlikni ta'minlab, mavzuning dramatik va intonatsion rivojlanishini mustahkamlaydi.



3-qism “allegro” temp, 6/8 o'lchov, e moll tonalligida yozilgan bo'lib, qolgan qismlarga qaraganda ancha jadal xarakteri bilan ajralib turadi. Shakl jihatidan rondo-sonata shakli, A B A C kadensiya A B1 A sxemasidan iborat.

Ekspozitsiya 2 taktli tonika va dominanta akkordlaridan iborat kirish qismi bilan boshlanadi. O'ziga xos usul no'g'ora va bubenda bayon etilgan bo'lsa, solodagi mavzuning takrori ya'ni orkestrdagi raqobatlikni torli cholg'ularda ko'rishimiz mumkin. Damli cholg'ular biroz sukunat saqlab faqat lavha va bosh partiya orasida o'zing gammasimon harakati orqali bo'glovchi vazifasini o'taydi.

O'rta qism 2/4 o'lchovida og'ir vazmin lirik xarakterga ega kuy bilan qashqar rubobda kirib keladi. Urma zarbli cholg'ular qism mobaynida pauzada bo'lib, torli cholg'ular solo mavzuni qaytarsa va damli cholg'ularda ekspozitsiya mavzulari ya'ni A va B motivini takrorini ko'rishimiz mumkin.

“ff” bilan boshlangan kadensiya qashqar rubob o'zining bor mahoratini bayot etishga intiladi. U musiqa ifoda vositalari (dynamikaning kuchayib borishi va tez tez o'zgarishi ya'ni f dan p ga o'tishi, gammasimon harakatlardan tortib sekunda intervali oralig'ida kengayib borish va soddaritmik bo'linishlardan murakkabga harakatlar) dan keng foydalanish orqali kulminatsiyaga chiqa oladi.

Reprizada ekspozitsiyaning bosh partiya aynan takrori, lavhada esa qatlamlashgan va polifonik faturalashgan variant keladi.

Rustam Abdullayevning “Qashqar rubob va simfonik orkestr uchun kontsert” asari zamonaviy o'zbek kompozitorlik ijodida milliy cholg'uning simfonik tafakkur bilan integratsiyasini yorqin namoyon etuvchi yirik shaklli asarlardan biridir. Asarda kontsert janriga xos dramatik rivoj, mavzu va obrazlarning qarama-qarshiligi hamda yakkaxon va orkestr o'rtasidagi faol dialog kompozitsion jihatdan puxta asoslangan holda amalga oshirilgan.

Tahlil jarayonida aniqlanganidek, asarning shakliy tuzilishi — xususan, A–A1–A repriza munosabatlari hamda uchinchi qismdagi rondo-sonata shakli — mavzuning izchil rivojlanishi va dramatik kuchayishini ta'minlaydi. Garmonik jihatdan subdominanta organ-punktlari, modallik elementlari va funksional barqarorlik vositalarining qo'llanilishi musiqiy fikrning uzluksizligini mustahkamlaydi. Ritmik tashkil etilishda esa o'lchovlarning almashuvi, jadal harakat va lirik epizodlar kontrasti asarning ichki dinamizmini oshiradi.

Tembr jihatidan qashqar rubobning ifodaviy imkoniyatlari simfonik orkestr fakturasi bilan uyg'unlashgan holda ochib berilgan bo'lib, ayniqsa kadensiya bo'limida yakkaxon cholg'uning texnik va badiiy salohiyati to'laqonli namoyon bo'ladi. Polifonik fakturaning qo'llanilishi, qatlamlashgan orkestr yozuvi va tembrlararo muvozanat asarning badiiy dramatzimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur kontsert Rustam Abdullayevning kontsert janriga bo'lgan innovatsion yondashuvini, milliy musiqa intonatsiyasini zamonaviy kompozitsion tafakkur bilan sintez qilishdagi yuksak mahoratini yaqqol ko'rsatadi. Asar nafaqat ijrochilik repertuarida, balki o'zbek musiqa san'atining nazariy va ilmiy tadqiqotlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi V tom. Toshkent 2003
2. Жабборов А. *Ўзбекистон композиторлари, бастакорлари ва муқашунослари: маълумотнома.* — Тошкент, 2018.
3. S. Matyakubova. Musiqa asarlar tahlili. Toshkent2023